



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

SEHRLI ERTAKLARDA MOTIV VA OBRAZ MUNOSABATI

THE RELATIONSHIP BETWEEN MOTIF AND IMAGE IN FAIRY TALES

Abdukamol ABDUJALILOV,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
katta ilmiy xodimi, fil.f.f.d. (PhD)

<https://orcid.org/0009-0002-6896-1767>

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GPVS5244

Annotation. *This article examines the relationship between motifs and images used in the plots of uzbek folk fairy tales, as well as their differences and similarities.*

Key words: *motive, image, character, hero, elements of the plot of a fairy tale.*

Borliq, xususan, san'atning barcha tur va yo'nalishlari bo'lak va butun – butun va bo'lak munosabatlari asosiga qurilgan. Shunga ko'ra, bo'lakning xususiyatlari, vazifa-yu shakllarini yaxshiroq bilish uchun butunni to'laligicha anglash; butunning mohiyatiga yetish uchun esa, uni tashkil qiluvchi qismlarini sinchiklab tadqiq etish talab qilinadi. Shu bois, avvalo, folklordagi epik turga mansub janrlar sujetining mag'zi, asosi hisoblangan motiv atamasi va tushunchasi haqida to'xtalib o'tish lozim.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa motiv so'ziga quyidagicha izoh berilgan: “**MOTIV** [fr. motif – kuy, ohang] 1 ad. Sujetning tarkibiy unsuri, asarning asosiy mazmuni, mavzusi. Dostonning motivi. – Ana shu kompazitsion bag'rikenglik, birinchi navbatda, Shayxzodaning yagona bir motivi – poyama-poya rivojlantirish san'atida ko'rinadi. “O'TA”. 2 mus. Kuyning eng kichik qismi. Motivda bitta aksent bo'ladi” [1;618].

Ilm-fanning bir qancha turlarida ham motiv atamasi qo'llanib, uning izohi o'sha fanning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda tushuntiriladi. Masalan: Motiv molekulyar biologiyada – DNKdagi nukleotid yoki oqsillardagi aminokislotalarning ma'lum bir ketma-ketligi; psixologiyada – inson xatti-harakatlarini boshqaruvchi, uning yo'nalishini, uyushganligini, faolligini hamda barqarorligini belgilaydigan ruhiy-fiziologik va dinamik jarayondir; amaliy san'at turlarida – rasm chizishda, kashtachilik yoki zardo'zlikda doimo ishlatiladigan kompozisiyaning ajralmas bir qismi; musiqada – musiqaning eng sodda ritmik birligi deb ta'riflanadi.

Yuqoridagi ta'rif va izohlar motiv atamasining mohiyatini bir qadar ifodasa-da unga adabiyotshunoslik va folklorshunoslik fanlari nuqtai nazaridan baho berish umumiylikdan xususiylikka olib boradi va bizni asosiy mauammoga chuqurroq kirishimizga yordam beradi.

Adabiyot “Folklor beshigi”da voyaga yetib, jamoaviylikdan individuallikka o'tgan, aniq bir muallifga tegishli so'z san'atidir. Garchi adabiyot folklor bag'ridan o'sib chiqqan bo'lsa-da, bu ikki so'z san'atining nazariy tomonlarida o'ziga xos o'xshashliklar bilan birga farqli jihatlar ham talaygina. Jumladan, folklorda ham adabiyotda ham biror asar sujetida muhim o'rin tutuvchi “MOTIV” tushunchasi chuqurroq o'rganilganda yetarlicha farqlarni kuzatish mumkin.

Shu bois biz adabiyotshunoslikdagi motivning bir qancha izoh va aniq ta'rifini quyidagicha berishni taklif qilamiz:

1. *Adabiyotshunoslikda motiv – g'oya va konseptsiya* ma'nosida qo'llaniladi. Bunda ko'roq ijodkorning asarlari bo'ylab bir chiziqli ostida o'tgan mushtarak qarashlari nazarda tutiladi.

2. *Adabiyotshunoslikda motiv* – **mavzu** ma'nosida qo'llaniladi. Bunda biror ijod namunasining asosiy mavzusi (*o'gay ona va bola munosabatlari, ota va o'g'il o'rtasidagi kelishmochiliklar, vatan*) nazarda tutiladi.

3. *Adabiyotshunoslikda motiv* – **obraz, ramz, timsol, narsa-buyumlar** ma'nosida keladi (*do'st motivi, ochil dasturxon motivi kabi*).

4. *Adabiyotshunoslikda motiv* – epik turga mansub janr (*roman, qissa, hikoya*)larda **sujet sxemasidagi eng kichik** birlik ma'nosida qo'llaniladi (*qahramonning bandi etilishi, uning o'z otasini tanimasligi, sinovlar sabab yuksaklikka erishishi kabi*).

Adabiyotshunoslikdagi motivning ta'rifi: *Motiv* – adabiyotda an'analar asosida bir yoki bir nechta ijodkorning asarlarida takrorlanuvchi g'oya, konsepsiya; mavzu; obraz, ramz, timsol; narsa-buyum hamda sujetni harakatga keltiradigan sxematik birlik ko'rinishidagi unsur.

Biz tadqiqotchi sifatida o'zbek xalq sehrli ertaklaridagi motivlarni o'rganishni maqsad qilgan ekanmiz, folklorda, uning epik turiga mansub janrlarida, xususan, ertaklardagi motivning sujetdagi o'rnini aniq belgilab olishimiz zarur. Biz o'zimizgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayangan holda aytilishimiz mumkinki, "motiv" atamasining mohiyatida uch muhim tushuncha yotadi. Bular:

- **motiv asar sujeti tarkibida eng kichik unsurdir;**
- **u har doim harakat yoki holatni ifodalab keladi;**
- **motiv folklor sujetida to'g'ri yoki teskari; asl yoki o'zgargan shaklda tinimsiz takrorlanadi.**

Biz yuqorida adabiyotshunoslikdagi motivga bergan to'rtta izohimizning avvalgi uchtasida mazkur tub tushunchalarning faqatgina uchinchisi, ya'ni **"to'g'ri yoki teskari; asl yoki o'zgargan shaklda tinimsiz takrorlanish"** sifati mavjud. Ammo adabiyotshunoslikda motiv atamasi bilan bir ma'noda qo'llaniluvchi *g'oya, konsepsiya, mavzu, obraz, timsol* yoki *narsa-buyumlarda eng kichik unsurlilik, harakat yoki holatga egalik* kabi sifatlar yo'q. Faqatgina to'rtinchi izoh – "epik asarlar sujetida sxema ko'rinishda takrorlanuvchi unsur"da motiv atamasining mohiyatidagi har uchchala tushuncha mavjud. Bundan kelib chiqadiki, motivni xuddi adabiyotshunoslikdagi kabi folklorshunoslikda ham *g'oya, konsepsiya, mavzu, mazmun, obraz, ramz, timsol, narsa-buyum* kabi tushunchalar o'rnida qo'llash to'g'ri emas.

Fikrlarimizni asoslash maqsadida o'zbek folklorshunoslikgida xalq o'zg'zaki ijodining epik janrlari, xususan, ertaklarni maxsus o'rgangan folklorshunoslarimizning ishlarida *obraz, ga'royib narsa-buyumlar* haqidagi ta'riflarni keltirishning o'zi kifoya. Jumladan, o'zbek xalq sehrli ertaklaridagi obrazlar tizimini tadqiq etgan J.Asqarova sehrli ertak obrazlarini quyidagicha tasniflaydi: "O'zbek xalq sehrli ertaklaridagi obrazlarni tizimlash sehrli ertaklar xususiyatidan hamda obrazlarning matnda tutgan o'rnini va bajaradigan vazifasiga ko'ra quyidagicha guruhlashni taklif etamiz: a) bosh qahramon; b) homiy personaj; c) raqib personaj; d) ko'makchi personaj" [2;18–19]. Ko'rinyaptiki, obraz asar sujetida **harakat va holatning egasi** sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sehrli ertaklardagi g'aroyib narsa-buyumlarni tadqiq qilgan Z.Rasulova ularning ertak sujetidagi ahamiyati haqida shunday deydi: "G'aroyib narsa"lar sehrli ertaklar badiiyatining asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi, ularning sujetidagi voqealar tafsilotiga sirliklik bag'ishlaydi. Shu bilan birga ulardagi sujet voqealarining rivojlanib borishida muhim vosita hisoblanadi. Ertak qahramonlarining xarakterini ochib berishda va belgilashda, xususan, bosh qahramon qiyofasini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi" [3;203].

Ma'lum bo'lyaptiki, asar sujetidagi narsa-buyumlar **obrazlarning turli xatti-harakatlarni amalga oshirishida qo'shimcha muhim vosita**, shuningdek, **ertakning sehrililigini ta'minlovchi va qahramon qiyofasini yorituvchi unsur** bo'lib xizmat qilayapti.

Demak, folklor asarlarida motiv adabiyotdagi kabi (*g'oya, mavzu, obraz, narsa-buyum*) bir qancha m'anolarda emas, faqat bir ma'noda – epik turga mansub janr (*asosan, doston, ertak*)larda **sujet yaratuvchi eng kichik unsur** ma'nosida qo'llaniladi (*tug'ilish, ehtiyoj, sinov, safar, evrilish, qilmish, ko'mak, siylov, jazo kabi*).

Aslida bu atama o'zlashtirilgan san'at turi bo'lmish musiqada ham motiv biror kompozitsiyadagi **eng kichik, harakat yoki holat ko'rinishida; to'g'ri yoki teskari; asl yoki o'zgargan shaklda domiy takrorlanuvchi** birlik sifatida keladi. Shularni e'tiborga olgan holda, biz folklorshunoslikdagi motiv tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni taklif qilamiz:

Motiv – folklorning epik turga mansub janrlarida obrazning sujetga ta'sir qiladigan va uni o'zgartira oladigan xatti-harakat va holatlaridir.

Folklorida motiv – birlamchi. Epik asar sujeti motivlar kombinatsiyasidan tashkil topadi va bunda sujet tarkibidagi eng kichik unsur motivdir. Motiv semantik jihatdan boshqa bo'laklarga ajralmaydi. Motiv sujet tarkibida o'zaro ketma-ketlikda harakat qiladi. Bunda har bir motiv o'zidan oldin va keyin keladigan boshqa motivlar bilan ma'no va qurilishiga ko'ra mos keladi. Biror motivning turlari, vaziyat shakllari matnda xilma-xil ifodalansa-da, motivning o'zagi o'zgarmaydi. So'z vositasida san'at yaratishga asoslangan folklor va adabiyotdagi motivning ma'nosi bu egiz sa'nat turlarida bir-birdan farqlanarkan, folklorning o'zigagina xos nazariy ta'limotni yaratish eng birinchi masalalardan ekani ayon bo'ladi.

Ertak sujetida ishtirok etuvchi o'ndan ortiq motivlarning aksariyati matnda turli personajlar xatti-harakatining natijasi o'laroq ifodalanadi yoki ular bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Motivlarining ertak obrazlari bilan bog'liq munosabatlarini ko'rib chiqish uchun, avvalo, ertakda ishtirok etuvchi barcha obraz va personajlarni belgilab olishimiz loziz. Folklorshunos olimi J.Asqarova o'zbek xalq sehrli ertaklaridagi obrazlar tizimini o'rganar ekan, ularni quyidagicha guruhlashtiradi:

“O'zbek xalq sehrli ertaklaridagi obrazlarni tizimlash sehrli ertaklar xususiyatidan hamda obrazlarning matnda tutgan o'rni va bajaradigan vazifasiga ko'ra quyidagicha guruhlashni taklif etamiz:

I. Bosh qahramon:

1. Bosh qahramon – kenja botir, shahzoda, yigit;
2. Bosh qahramon – kenja qiz, malika, qiz.

II. Homiy personaj:

1. Antromorf homiy personaj – chol, ota, Xizr, pari, sehrgar kampir;
2. Zoomorf homiy personaj – ot, bo'ri, maymun.

III. Raqib personaj:

1. Mifologik raqib personaj – ajdar, yalmog'iz, dev;
2. Antromorf raqib personaj – jodugar, maston kampir, o'gay ona, katta aka va katta opalar;

IV. Ko'makchi personaj:

1. Mifologik – dev, pari;
2. Zoomorf – ot, sigir, it, mushuk, sichqon.
3. Ornitomorf – Semurg“ [2;18].

Biz sehrli ertaklar sujetida ishtirok etuvchi motivlarning yuqoridagi obrazlar bilan o'zaro munosabatlarini tadqiq qilib, uni quyidagi jadvalda ifodalshga harakat qildik:

1-jadval

Bosh qahramon	tug'ilish motivi; tush motivi; sinov motivi (sinovdan o'tish); safar motivi; qilmish motivi (shartni bajarish, taqiqni buzish);
----------------------	--

	tilsim motivi; siylov motivi (siylovni olish).
Homiy personaj	xabar motivi; ko'mak motivi; safar motivi (birgalikda); tush motivi; siylov motivi (siylovni berish).
Raqib personaj	sinov motivi (sinovni berish); qilmish motivi (aldash, o'g'irlash, yomonlik);
Ko'makchi personaj	xabar motivi; ko'mak motivi; sinov motivi (qahramon nomidan shartni bajarish).

O'zbek xalq sehrli ertaklarida shunday g'ayrioddiy narsa-buyumlar ham borki, ular ertak sujetida obraz darajasiga ko'tarilib, ular vositasida motiv ifodalanadi. Misol uchun, "Ur, to'qmoq" ertagidagi to'qmoq asli buyum bo'lsa-da, u ertak sujetida obraz bo'lib keladi. U orqali jazo motivi namoyon bo'ladi.

Qisqacha aytganda, ertak sujetidagi motivlar aksariyat hollarda o'ziga mos obrazlar bilan munosabatga kirishadi. Bu xuddi sintaksisdagi gapning bosh bo'laklari bo'lmish ega va kesimning munosabatiga o'xshab ketadi. Ega va kesim gapda o'zaro shaxs-sonda moslashgani kabi obrazlar ham sujet tarkibida motivlar bilan moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати // 5 жилдлик. II жилд / – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 618.
2. Asqarova J. B. O'zbek xalq sehrli ertaklarida obrazlar tizimi. – Toshkent: Firdavs-Shoh, 2024. – B. 18–19.
3. Жўраев М., Расулова З. Миф, маросим ва эртак. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2014. – Б. 203.

